

TARBIYACHINING INNOVATSION YONDASHUVI ASOSIDA BOLALARDA RIVOJLANISH SOHASINI INTEGRATSION USULDA TAKOMILLASHTIRISH.

M.S.Alimbayeva

Z.J.Bozorboyeva

D.J.Saparmuradova

UrDPI Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiyachining innovatsion yondashuvi asosida bolalarda rivojlanish sohasini integratsion usulda takomillashtirish to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini bola ta'limi va rivojlanishida innovatsion yondashishlari xususiyatlari, tarbiyachining innovatsion faoliyatdagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi masalalar va ularning yechimlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Tarbiyachi , innovatsion yondashuv, bola, tarbiya, texnologiya, integratsiya, rivojlanish soha, metod, faoliyat, tizim, ta'lim.

Innovatsion ta'lim(ingl. Innovatsion- oluvchida yangi g'oya me'yor qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim jarayoni hisoblanadi.

Innovatsion o'qitish- yangicha o'qitish tizimi hisoblanib unda kelajak yosh avlodga yangi tizim va texnologiyalar asosida talim-tarbiya berish jarayoni hisoblanadi. Tarbiyachi innovatsion yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarga ilg'or pedagogik metodlar, zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim berishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotining rivojlanishida pedagogning o'rni beqiyos hisoblanadi. Pedagog bolalarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olishi, orqali uning har tomonlama rivojlanishi, uning ijtimoiy va ma'daniy rivojlanishiga yordam berishda asosiy rol o'ynaydi. Tarbiyalanuvchilarga bilim berish tarbiyachilarning

vaholanki barcha pedagoglarning ma'suliyatli burchidir, deb Ibn Sino pedagogning shaxsiyati qanday bo'lishi keakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish:
- beriladigan bilimni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish:
- ta'limda turli usul va shakillardan foydalanish:
- bolaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish:
- berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o'qitish:
- bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish:
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchining ,ichki dunyosiga kira olishi, bola shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushina bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday pedagog bolaning ruhiyatiga, rivojlanish darajalari qay holatda bolib turganiga, bolada qanday ozgarishlarni kechayotganigiga va bola maktab davriga tayyor yoki tayyor emasligini kuzatuv ostida olib borishi lozimdir. Ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida hamkorlikni yaratish va ikkala tomon o'rtasida dostona muhitni vujudga keltirish, ta'lim-tarbiya jarayoning muvaffaqiyatli va samarali o'tishigiga, yanada tarbiyachining egallagan bilim va konikmalarini, malakalarni, tajribalarni, o'zida shakillantirgan shaxsiy insoniy fazilatlarini tarbiyalanuvchilarga yetkazib berish imkoniyatini hamkorlik va ochiq mulokot orqali amalga oshiradilar.

Tarbiyachi avvalo:

-Yumshoq ko'ngilli, ochiq chehrali, shirinso'zli bolalarni qanday bo'lsa shundayligigacha yaxshi ko'rishi;

-Mehr-muhabbat qalb g'ururini bolalarga bab-baravar bo'lib berishi honada dostona muhitni yaratish va bolalarning o'quv motivlarni rivojlantiruvchi kuchlarni rag'batlantirish metodlar ekanligini anglash;

-Tarbiyalanuvchilarni taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas'ul ekanligini chuqur his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini ezoqlash;

Tarbiyalanuvchilarni tushuna olishi ularning his tuyg'ularini qadrlash, tashvishlari, iztiroblari yengishga yordam berishi, yoshlik va psixologik rivojlanishda o'ziga hos xususiyatlari qiziqishlari ehtiyojlarini bilishi lozim.

Pedagogning innovatsion faoliyati borasida juda ko'p olimlarimiz izlanishlar olib borishgan. Jumladan, 60-yillardan boshlab X.Barnet, J.Bassed, me'yor¹qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or me'yor qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or D.Gamilton N.Gross, R.Karlson, D.CHEM, R.Edem, S.M.Godnim kabi tadqiqotchilarimiz o'z ishlanishlari davomida pedagogning ilg'or g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga tatbiq qilish mazmunini yoritib berishgan.[1] Har bir mahoratli pedagog faoliyati davomida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar ta'lim tizimida foydalanishi lozim.Bunday ta'lim tizimida faoliyat olib borish orqali tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlashini va dunyoqarashini zamon talabiga mos holda shakllantirib borishimiz mumkin.

Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning maktab ta'limi bo'lgan keyingi bosqichga muommasiz o'tishi va unga tayyor bo'lishi va boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarurdir.[2]

Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish sohalari quyidagilardan iborat:

1. Jismoniy rivojlanish va soglom turmush tarzining shakllanishi;
2. Ijtmoiy-hissiy rivojlanish;
3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
4. Bilish jarayoning rivojlanishi;
5. Ijodiy rivojlanish.

“Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi” sohasi orqali

-oʻz imkoniyatlari va yoshi bilan bogʻliq jismoniy rivojlanish meʼyorlariga mos holda jismoniy faollik koʻrsatadi;

-shaxsiy gigiena malakalarini namoyon etadi;

-sogʻlom turmush tarzini va ovqatlanish asoslarini biladi;²

“Ijtimoiy hissiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari

-oʻz “Meni” va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roʻli toʻgʻrisida tasavvurga ega boʻladi;

-oʻz hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;

-kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi.

“Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari” sohasi kompetensiyalari

-ona tilida toʻgʻri talaffuz, mos grammatik shakllar va turli gap tuzilmalardan foydalanadi;

-badiy adabiyotga qiziqish bildiradi;

-chet tilini oʻrganishga qiziqish bildiradi.

-ona tilida yozishning dastlabki malakalarini va vositalardan foydalanishni biladi.

“Bilish jarayoning rivojlanishi” sohasi kompetensiyalari

- bilim olishga katta qiziqish bildiradi;

-predmetlar, voqea-hodisalar va holatlar oʻrtasidagi bogʻliqni tushunadi;

-raqamlar, sanashni biladi va ularni hayotda qollay oladi;

-elementar matematika hisoblarini amalga oshiradi;

² Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim tashkilotidagi “Takomillashtirilgan ilk qadam” davlat oʻquv dasturi

“Ijodiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari

-san'at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi;

-milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idroq qiladi;

-olingan bilim va konikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tadbiq qilish uchun foydalanadi;

-insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.³

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarda rivojlanish sohasini shakllantirish uni integratsion usulda takomillashtirishga bo'lgan e'tibor kundan-kunga ortmoqda.

G.Shopengaur “Har bir bola qisman dahol, har bir bola qisman dahoesa qisman boladir” – deb bejizga aytmagan. Uzluksiz talimning birinchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda ana shunday daholar tarbiyalanadi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyayev O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirdagi nutqida: “Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamolati uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman” –degan edi[4] Bolaning rivojlanish sohalarini shakllantirish masalasi hech qachon o'z faoliyatdan to'xtamaydi. Bugungi kunda bizning mamlakatimizda ham maktabgacha tashkilotni kengroq qamrab olish maqsadida xususiy maktabgacha ta'lim tashkiloti va uy bog'chalari faoliyatiga juda katta e'tibor kuchaymoqda. “Bolalardagi shumtakalikni yo'q qilsangiz, hech qachon donishmandlarni yarata olmaysiz”- deydi g'arb olimi Jan Jak Russo. Bu fikrda ham bir hikmat bor. Bola o'zi qiziqqan o'yinchoqni o'ynashi yoki uni buzishi mumkin. Tarbiyachi unda “bu bizniki” degan tushinchani tog'ri shakllantisa maqsadga muvofiq[5]

Maktabgacha ta'lim tashkilotini integratsion usulda takomillashtirish asosiy jihatlari;

³ “Takomillashtirilgan ilk qadam davlat o'quv dasturi” 17-bet

1. Fanlararo bog‘liqlik- Turli fan va yo‘nalishlarini birlashtirib, bolalarning mantiqiy fikrlashini va bilimlarini rivojlantirish.
2. Texnologiyalardan foydalanish- Raqamli resurslar, interfaol o‘yinlar va multimedia materiallar orqali ta‘lim jarayonini boyitish.
3. Psixologik va pedagogik yondashuvlar- Har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olib, rivojlanishiga ko‘maklashadi.
4. Komspleks yondoshuv – O‘yin ,tajriba ,badiiy ijod, musiqa, jismoniy tarbiya va til o‘rganishni birgalikda olib borish.
5. Ijtimoiy-madaniy rivojlanish –Milliy qadriyatlar, maaniy meros va muloqot ko‘nikmalarni shakillantirish orqali blalarni jamiyatga moslashtirish.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda maktabgacha talim sohasiga bo‘lgan e‘tibor kundan kunga ortmoqda. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari yaratilayotgan shart-sharoitlar barchasi yosh avlodni zamonaviy fikrlashi, uni har tomonlama mukammal inson bo‘lib kamol topishi, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Pedagog innovatsion yondashuv orqali bolalarga to‘g‘ri ta‘lim tarbiya berishida ularning rivojlanish bosqichida asosiy ro‘lni bajaradi Tarbiyalanuvchilarni boshqarishga moyil, qiziquvchan bo‘lganliklari uchun tarbiyachi o‘z metodlarini to‘g‘ri va aniq qo‘llashi zarur jamiyatda tarbiyachi modelining ijtimoiylashuvida uning pedagogik mahorati, qobiliyati, har bir tarbiyalanuvchilarning yosh hususiyatlariga etibor berishi, davlat talablari asosida olib borilishi va bu jihatlarning to‘g‘ri yo‘lga quyishi eng avvalo tarbiyachi shaxsiga bog‘liqdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. ”Takomillashtirilgan ilk qadam davlat o‘quv dasturi” 2022-yil 4-fevral
2. muzaffarovna85@gmail.com
3. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14281960>
4. Nasimova Nasiba Qurbon qizining “Integrativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar bolalarda tayanch kompetensiyalarini takomillashtirish uchun tarbiyachilarga qo‘yiladigan talablar” maqolasidan.